

O‘zbekiston
Metama’lumot
Nikohlar soni

Ishlab chiqilgan sana: 30.10.2024

Oxirgi yangilangan sana: 30.10.2024

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

2021-yil 11-avgustda Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo uchun Rasmiy statistika to‘g‘risidagi namunaviy qonuni asosida ishlab chiqilgan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to‘g‘risida nizomga muvofiq, Statistika agentligi rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etilishini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo‘lgan statistika uslubiyotlarining birligini ta’minlash; statistika ma’lumotlarini yig‘ishni, uy xo‘jaliklarining statistika kuzatuvlarini, ro‘yxatga olishlarni, bir marotabalik hisobga olishlarni, tanlanma so‘rovlarni va boshqa statistika kuzatuvlarini o‘tkazishni tashkil etish; barcha darajadagi foydalanuvchilarni belgilangan tartibda rasmiy statistika ma’lumotlari bilan ta’minlash; statistika maqsadlarida foydalanish uchun statistika registrlari va tasniflash tizimini yuritish uchun javobgar hisoblanadi.

Shu bilan birga, Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma’lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;

- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o'tkazish va olingan birlamchi ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo'lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag'batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni so'rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo'lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;
- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

Statistika jarayonlarini boshqarish, shu jumladan statistika ma'lumotlarini tayyorlash va tarqatish xalqaro sifatni boshqarish modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0)ga asosan ishlab chiqilgan milliy tartib-taomillarga muvofiq amalga oshiriladi.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

Statistika agentligi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Statistika agentligining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuvini shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o‘tkazish chog‘ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to‘liq ma‘lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Respublika darajasidagi demografik ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasi, Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi. Hudud darajasida mazkur ko‘rsatkichlar hududiy statistika boshqarmalarining Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi xodimlari tomonidan shakllantiriladi.

Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘limida 4 ta xodim, hududiy statistika boshqarmalarining Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limlarida o‘rtacha 3 ta xodim faoliyat yuritadi. Aholi statistikasi bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni shakllantirishda qo‘yilgan vazifalarni bajarishda xodimlar soni yetarli hisoblanadi.

Barcha xodimlar sohaga tegishli bilim va ko‘nikmalarga ega. Xodimlar malakasini oshirishda muntazam ravishda Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti yaqindan yordam beradi.

Bo‘lim oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda elektron-hisoblash resurslari yetarli bo‘lib, dasturiy ta‘minot vaqti-vaqti bilan yangilanib, qo‘yilgan va yuzaga keladigan talablarga javob beradi. Har bir ish joyi lokal tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuterlar bilan ta‘minlangan. Elektron-hisoblash resurslari yetarlicha himoya bilan, shuningdek, favqulodda holatlarda statistik axborotlarni qayta tiklash tizimi bilan ta‘minlangan.

Moddiy-texnik va boshqa resurslar qo‘yilgan talablarga javob beradi. Demografiya statistikasi bo‘yicha statistika dasturida ko‘zda tutilgan ishlarni bajarish uchun taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar yetarli hisoblanadi.

1. Beg‘arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan beg‘arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo'ysunadi.

Mazkur statistik ma'lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo'l qo'yilmagan va kasbiy mustaqillik to'liq ta'minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e'tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslari, o'quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta'minlash orqali ta'minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o'quv kurslarida ma'ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e'lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta'minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, ma'lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog'lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma'lumotlar to'plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma'lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlilik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Statistika agentligi rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Hukumat Statistika agentligi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Agentlik direktori, uning o‘rinbosarlari va mas‘ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Statistika agentligi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Statistika agentligi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Statistika agentligi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va tushunchalar

2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Foydalaniladigan konsepsiya va ta'riflar umume'tirof etilgan halqaro statistik tizimlarga asoslangan.

Nikohlar sonini hisoblashda quyidagi Xalqaro tavsiyalar qo'llaniladi:

“Aholining tabiiy harakatini statistika tizimi uchun tamoyillar va tavsiyalar”, BMT Statistik komissiyasi tomonidan 2014-yil 45-sessiyasida tasdiqlangan (Uchinchi qayta ko'rib chiqilgan nashr, BMT Nyu-York, 2015-yil).

1989-yilda HQTni o'ninchi qayta ko'rib chiqish bo'yicha xalqaro konferensiya tomonidan tasdiqlangan va 43-Jahon sog'liqni saqlash assambleyasi tomonidan qabul qilingan kasalliklar va ular bilan bog'liq sog'liq muammolarining xalqaro statistik tasnifi.

“2020-yilda aholi va uy-joylarni ro'yxatga olish bo'yicha Yevropa statistiklari konferensiyasining tavsiyalari” Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Nyu-York va Jeneva, 2015-yil.

Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyoda aholi va uy-joylarni ro'yxatga olish (2010-yilgi aholini ro'yxatga olish bo'yicha amaliyotlarni ko'rib chiqish, BMT Nyu-York, 2016).

Milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi 635-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi (O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 607-I-son qonuni bilan tasdiqlangan);

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda 163-I-son va 1996-yil 29-avgustdagi 256-I-son qonunlari bilan tasdiqlangan);

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012-yil 23-oktabrdagi "Fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlarining shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash haqida"gi 234-mh-son buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2010-yil 27-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash muassasalarida tug'ilganlik haqidagi tibbiy ma'lumotnoma, perinatal o'lim va o'lim haqidagi tibbiy guvohnomalarni berish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 56-son buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4262-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 1999-yil 9-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi 55-son buyrug'i;

Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 123-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy Nizom";

Statistika agentligining 2024-yil 30-apreldagi 78-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati dalolatnomalari va statistik hisob talonlari ma'lumotlarini kodlashtirish bo'yicha qo'llanma".

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyatlar va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlar quyidagi guruhlarni qamrab oladi: nikohlanuvchilarning yoshi, oilaviy ahvoli, shahar va qishloq (yashash joyi) bo'yicha.

Nikohlar soni – er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish soni yig'indisidan iborat.

Nikohlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar hisobot davri bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi barcha tuzilgan nikohlarni (istisnolarsiz) qamrab oladi.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

Nikoh yoshi – O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksiga muvofiq belgilanadi.

Nikoh holati – shaxsning nikohga nisbatan huquqiy me‘yorlar va mamlakat urf-odatlariga muvofiq belgilanadigan holati (nikohda bo‘lmagan, nikohda bo‘lgan, beva (tul), ajrashgan).

Nikohlar soni to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlar Adliya vazirligining joylardagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlari tomonidan taqdim etiladi. Mazkur statistik ma‘lumotlar yoshi, oilaviy ahvoli va shahar-qishloq kesimida ishlab chiqiladi.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Statistik qamrovdan istisnolar mavjud emas.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Aniqlanmagan faoliyat mavjud emas.

2.3 Tasniflash/sektorlar bo‘yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sektorlar bo‘yicha taqsimlash

Hududlar bo‘yicha ma‘lumotlarni shakllantirishda “O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy-hududiy tuzilmalarni (obyektlarni) belgilash tizimi” (MHOBT) idoraviy statistik tasniflagichidan foydalaniladi.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Hisobning asosiy birligi - birlik.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Nikohlar hisobi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlari (Adliya vazirligi tizimidagi) tomonidan qayd etilgan dalolatnoma yozuvlari asosida yuritiladi.

2.4.3 Yalpi/sof ko‘rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Yo‘q.

3. Aniqlik va ishonchlik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Nikohlar soni statistikasining asosiy manbasi – Nikoh tuzganligi haqidagi dalolatnoma yozuvlari hisoblanadi.

Nikohlar soni bo'yicha statistik ma'lumotlar oylik davriylikda yig'iladi.

Dastlabki ma'lumotlar tizimli ravishda choraklik davriylikda hisoblanadi. Hisoblangan natijalar kuzatiladi va statistik jarayonlarda hisobga olinadi.

Aniqlik va ishonchlik parametrlari nikohlar sonini yillik va choraklik davriylikda hisoblashda qo'llaniladi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Birlamchi ma'lumotlar statistik qamrov, tasniflagich, baholash va hisobning aniq davriga nisbatan talab etiladigan parametrlar yetarlicha yaqindir.

Nikoh tuzish holatlari Adliya vazirligining Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida (FHDYo) qayd etilishi majburiydir.

Jarayonlarning absolyut soni tuzilgan nikoh to'g'risidagi dalolatnomalari yozuvlarining ikkinchi nusxalaridagi ma'lumotlarni statistik jarayonlarni qayta ishlash asosida olinadi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi ularni o'z vaqtida olinishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ma'lumotlar Statistika agentligi tomonidan statistika dasturida belgilangan muddatlarda chorak yakunlari bo'yicha respublika va hududlar kesimida ishlab chiqiladi.

Nikohlar soni to'g'risidagi yillik ma'lumotlar jarayon sodir bo'lgan vaqtda, oylik ma'lumotlar jarayon ro'yxatga olingan vaqt bo'yicha hisobga olinadi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi, hududiy statistik boshqarmalari va Statistika agentligi tomonidan majburiy nazorat va tekshiruvdan o'tadi. Ro'yxatga olishda xatoliklar yuzaga kelganda, ma'lumotlarga aniqlik kiritiladi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

Nikohlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar hisobot davri bo'yicha O'zbekiston Respublikasida nikohdan o'tgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini (istisnalarsiz) qamrab oladi.

Qo'llanilgan statistik usullar statistik jarayonlarning asoslanganligiga mos bo'lib, ma'lumotlarni qayta ishlashda xatoliklarni minimumgacha tushirish imkonini beradi.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Ma'lumotlarga tegishli tuzatish va o'zgartirish kiritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy Nizom, Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirishda statistik hisob talonlari va fuqarolik holati dalolatnomalaridagi ma'lumotlarni kodlashtirish bo'yicha qo'llanmalar asosida amalga oshiriladi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Muntazam ravishda baho va hisobot ma'lumotlarini o'zaro taqqoslash ishlari amalga oshiriladi. Dastlabki va yakuniy ma'lumotlar orasidagi farq uncha katta emas.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Oraliq va yakuniy ma'lumotlar doimiy ravishda baholanadi va taqqoslanadi.

Yil yakunlari bo'yicha ro'yxatga olingan nikohlar soniga hodisa sodir bo'lgan vaqt bo'yicha aniqlik kiritiladi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Oraliq ma'lumotlardagi statistik farqlar baholanadi va tadqiq etiladi.

Tayyorlanuvchi statistik ma'lumotlardagi statistik farqlar va boshqa potensial muammolar mavjudligi o'rganiladi.

Ilgari chop etilgan ma'lumotlarda farqlar aniqlangan hollarda ushbu ma'lumotlarga keyingi nashrlarda tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil etish tizimli ravishda choraklik davriylikda amalga oshiriladi va uning natijalari ichki statistika ishlarida inobatga olinadi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Davriylik va muddatlilik ma'lumotlarni tarqatishning umume'tirof etgan standartlariga javob beradi.

Nikohlar soni bo'yicha statistik ma'lumotlar oylik davriylikda yig'iladi.

Nikohlar soni bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik davriylikda chop etilib, XVF MTUT talablariga mos keladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Choraklik davriylikdagi dastlabki ma'lumotlar hisobot davridan keyingi oyning 10-kuni tayyorlanadi.

Hisobot davri uchun respublika, viloyat, tuman va shahar kesimida nikohlar soni to'g'risidagi yillik ma'lumotlar hisobot davridan keyingi yilning may oyida tayyorlanadi.

Hisobot davri uchun respublika, viloyat, tuman va shahar kesimida nikohlanuvchilarning yosh tarkibi va oilaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlar hisobot davridan keyingi yilning may oyida tayyorlanadi.

Respublika va viloyatlar kesimida barcha demografik ko'rsatkichlar hisobot davridan keyingi yilning avgust oyida tayyor bo'ladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Statistik ma'lumotlar vaqt bo'yicha ichki kelishilganlik bilan tavsiflanadi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Ma'lumotlarning yetarli vaqt oralig'i uchun dinamik qatorlari mavjud. Dinamik qatorlar 1991- yildan boshlanadi hamda Agentlik veb-saytida joylashtirilgan.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Statistik ma'lumotlar boshqa manbalar (Adliya vazirligining FHDYo bo'limlari va boshqa organlar)dan olingan ma'lumotlar bilan solishtiriladi.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish muddatlari oldindan aniqlanadi. Dastlabki va yakuniy ma'lumotlarni tayyorlash muddatlari har yili ishlab chiqiladigan statistika dasturida belgilab qo'yiladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Ma'lumotlarni tarqatishda foydalanuvchilarga ma'lumotlar dastlabki yoki yakuniy ekanligi to'g'risida axborot beriladi.

Dastlabki ma'lumotlarni chop etishda tegishli qaydlar ko'rsatiladi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Yakuniy ma'lumotlar dastlabki ma'lumotlar bilan solishtirilib tahlil qilinadi, bu esa dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligini baholashda yordam beradi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Ma'lumotlar hududlar, shahar-qishloq, jinsi, yoshi va millati bo'yicha chop etiladi.

Choraklik va yillik ma'lumotlar foydalanuvchilarga "O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati", "O'zbekiston demografik yillik to'plami", "O'zbekistonning yillik statistik to'plami", "O'zbekiston raqamlarda", "O'zbekiston ayollari va erkaklari" va boshqa nashrlarda, shuningdek, Statistika agentligining www.stat.uz, www.gender.uz, www.siat.stat.uz manzillaridagi rasmiy veb saytida joylashtiriladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Ma'lumotlar foydalanuvchilarga bosma shaklda Statistika agentligining quyidagi nashrlari orqali tarqatiladi:

- “O‘zbekistonning yillik statistik to‘plami”
- “O‘zbekiston demografik yillik to‘plami”
- “O‘zbekiston ayollari va erkaklari”
- “O‘zbekiston raqamlarda”
- “O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami”
- “O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi” va boshqalar.

Shuningdek, ma'lumotlar davlat boshqaruv organlariga kelishilgan jadvallar shakllari hamda foydalanuvchilarning so‘rovlari asosida taqdim etiladi.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Choraklik ma'lumotlar “O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati”, “O‘zbekiston Respublikasi statistik obzori”, “O‘zbekiston Respublikasi aholisining tabiiy harakati” nashrlari orqali tarqatiladi.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Jadvallar foydalanuvchilar so‘rovlari asosida taqdim etiladi.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Statistik ma'lumotlar va dinamik qatorlar elektron jadvallar ko‘rinishida Statistika agentligining rasmiy veb-saytida choraklik muddatda joylashtiriladi va yangilanib boriladi, shuningdek, veb-saytida “O‘zbekiston Respublikasi statistik obzori” nashr etiladi.

5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

Rasmiy statistika taqvim <https://stat.uz/> rasmiy saytida e'lon qilingan.

5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

Mavjud emas.

5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni va boshqa normativ hujjatlarga ko'ra foydalanuvchilarning so'rovlari asosida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Statistik ma'lumotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslar va xalqaro tashkilotlarning rasmiy xati oraqali yozma so'rovlari bo'yicha bosma yoki elektron jadvallar, statistik to'plamlar, tezkor ma'lumotlar, shuningdek, ikki tomonlama axborot almashinuvi to'g'risidagi kelishuv asosida taqdim etiladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

Konsepsiya, statistik qamrov, tasniflash, hisob asosi, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar haqidagi ma'lumotlar tarqatilayotgan statistik to'plamlarning asosiy ko'rsatkichlarga uslubiy tushuntirishlar shaklida keltiriladi. Statistik ko'rsatkichlarning shakllanishi va hisobi bo'yicha uslubiy nizomlar Statistika agentligi rasmiy veb-saytida joylashtirilgan.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Statistika agentligi tomonidan e'lon qilingan rasmiy nashrlarda statistik ma'lumotlarni tayyorlash uchun mas'ul xodimlar bilan aloqa bog'lash bo'yicha manzillar (pochta, telefon, faks,elektron manzillar va h.k.) ko'rsatib qo'yiladi.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Aholi tabiiy va mexanik harakati hisobi dasturiy ta'minoti takomillashtirildi.
Demografik jarayonlarni ro'yxatga olish yaxshilandi.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Yo‘q.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O‘rta muddatli

Statistika agentligi, Adliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Ichki ishlar vazirliklari o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvi bo‘yicha ishlarni takomillashtirish.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Yo‘q.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

O‘rta muddatli rejalarni amalga oshirishda, xalqaro tavsiyalarni o‘rganish uchun texnik yordam zarur bo‘ladi.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Yuldoshev Zoyir Toshkanovich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
Manzil:	Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 2028065
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 2028153
Elektron manzil:	z.yuldoshev@stat.uz